

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Dexqonova Raxnamaxon Adixamdjanovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

37-umumiy o'rta ta'lim maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning o'quvchilarning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlashdagi o'rni hamda kelajak kasbini ongli tanlashga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kasbga yo'naltirish, kasbiy qiziqish, kasb tanlash, o'quvchi shaxsi, motivatsiya, ta'lim jarayoni, qobiliyat, psixologik diagnostika, mehnat bozori, kasbiy rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarni kelajak kasbga ongli ravishda yo'naltirish hisoblanadi. Chunki har bir insonning hayotdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlariga mos kasb tanlashiga bog'liq. Kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarga o'z salohiyatini anglash, kelajak rejalari haqida aniq tasavvur hosil qilish va jamiyatda munosib o'rin egallashga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish ta'lim jarayonining uzviy qismi bo'lib, u nafaqat kasb tanlashga, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu esa ularga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash va kelajak faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarida maktab amaliyotchi psixologining o'rni alohida ahamiyatga ega. Psixolog turli diagnostik metodlar yordamida o'quvchilarning qobiliyatlari, kasbiy moyilliklari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlaydi. Olingan natijalar asosida individual tavsiyalar beriladi va kasb tanlash bo'yicha maslahatlar tashkil etiladi. O'qituvchilar ham kasbga yo'naltirish jarayonining muhim ishtirokchilaridan hisoblanadi. Fanlarni o'qitish davomida kasblar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va ularda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar va kasb egalari bilan uchrashuvlar o'quvchilarda kasblarga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantiradi.

Kasbga yo'naltirishda ota-onalarning ishtiroki ham katta ahamiyatga ega. Farzandning qiziqishi va qobiliyatini inobatga olgan holda berilgan tavsiyalar uning kelajakdagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Ota-onalar tomonidan kasb tanlashda bosim o'tkazish emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda mehnat bozoridagi o'zgarishlar va yangi kasblarning paydo bo'lishi kasbga yo'naltirish ishlariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. O'quvchilar zamonaviy kasblar, innovatsion texnologiyalar va mehnat bozori ehtiyojlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga puxta tayyorgarlik ko'rishiga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida treninglar, psixologik suhbatlar, kasblar yarmarkalari, ekskursiyalar va uchrashuvlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularda kasbiy o'zini anglash jarayonini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari va konsepsiyalari. O'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarga ta'lim berib borar ekan, shu bilan birga ularni kasb tanlashlariga ham yordam beradi. Bizga ma'lumki, maktabning kelajakda kasb tanlashga imkoniyati bo'lgan yoshlarga ta'lim berishdan iborat asosiy vazifasi -bu o'quvchilarning fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashini ta'minlashdir. Bular asosida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bir kasblarni tanlashlari uchun tavsiyalar berib boradi.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bu o'qituvchi va o'quvchi hisoblanadi. Bu yerda ta'lim beruvchi pedagogni va ta'lim oluvchi o'quvchi nazarda tutiladi. Bular birgalikda ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki ta'lim olayotgan o'quvchi va ta'lim beruvchi o'qituvchining o'ziga xos bo'lgan psixologik xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Bular esa o'z navbatida ta'lim olishga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi.

O'qituvchi ta'lim berish davomida bolalarning iqtidoridan va qobiliyati va qiziqishidan kelib chiqib, maktabdan keyingi uzluksiz ta'limni qaysi yo'nalishiga ta'lim olish uchun kirishlariga yordam beradi. Maktabdan kasbiy maslahat berish uchun o'qituvchi o'zi ham kasbiy maslahat to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi kelib chiqadi. Kasbiy maslahat bu asosan yoshlarga kasblar haqida ilmiy asoslangan maslahat berish bo'lib, u asosan yoshlarni qobiliyati, manfaatlari, qiziqishlari, intilishlari asosida kasb tanlashlariga yordam beruvchi sohadir. Kasbiy maslahat har bir kasb haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi shuningdek kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar, mehnat faoliyati, kasbning ijtimoiy-iqtisoiy va sanitar-gigienik statusi, kasbga o'qitish va insonga kasb qo'yadigan talablar haqida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunda inson psixik xususiyatlariga, meditsina va jismoniy ko'rsatkichlariga va kasbga mos kelmaslik to'g'risida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak.

Kasbiy maslahat yosh davrlariga qarab, ma'lumot darajasiga qarab va unda ishtirok etayotgan o'qituvchilariga, ota-onalarining ishtirokiga qarab muvaffaqiyatli chiqadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga kasb tanlash bo'yicha yo'l-yo'riq berish bilan bir qatorda, ularning psixologik va jismoniy salomatligini ham hisobga olishi zarur. Kasb tanlash arafasidagi o'quvchilar o'zlarining sog'lig'i holatini tibbiy ko'riklar orqali aniqlashlari mumkin. Shuningdek, maktab psixologlari va tibbiyot xodimlari ularning rivojlanish jarayonini muntazam kuzatib boradilar.

O'quvchining psixologik xususiyatlari yosh o'tishi bilan rivojlanib, takomillashib boradi. Diqqat, sezgi, tafakkur, xarakter, qobiliyat va boshqa psixik jarayonlar bolaning o'sishi davomida o'zgaradi. Ayniqsa, bu jarayon o'smirlilik davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jismoniy rivojlanish ham jadallashib, o'quvchining imkoniyatlari kengayadi. U o'zidagi o'zgarishlarni anglay boshlaydi va kelajakdagi kasbiy faoliyati haqida tasavvurlar hosil qiladi.

Insonning psixologik va jismoniy rivojlanishi nerv-fiziologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Bu masalalarni o'rganishda rus olimlari I.M. Sechenov va I.P. Pavlovning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Kasb tanlash muammolarini tadqiq etgan K.M. Gurevich esa shaxsning individual-psixologik xususiyatlari psixofiziologik jarayonlarga asoslanishini ta'kidlagan. O'quvchi voyaga yetib borgani sari uning xarakteri, qiziqishlari, odatlari va dunyoqarashi ham o'zgarib boradi. B.M. Teplovning fikricha, insonning kasb tanlashdagi muvaffaqiyati uning qiziqishlari, qobiliyati, bilim darajasi, layoqati va individual xususiyatlari bilan bog'liq. Har bir insonning imkoniyatlari o'ziga xos bo'lib, ular nerv tizimi faoliyatiga ham bevosita bog'liqdir.

I.P. Pavlov nerv tizimining kuchi, harakatchanligi va muvozanatligini asosiy xususiyatlar sifatida ko'rsatgan. Ushbu xususiyatlarning o'zaro uyg'unligi natijasida inson temperamentining sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik turlari shakllanadi. Temperament esa shaxsning xulq-atvori, faoliyat uslubi va kasbiy moslashuviga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasb tanlashda o'quvchining psixologik va jismoniy salomatligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jismonan sog'lom va ruhiy jihatdan barqaror shaxs o'z qiziqishlari hamda imkoniyatlarini to'g'ri baholab, kasbni ongli ravishda tanlay oladi.

Yosh davrlari inson rivojlanishining muhim bosqichlarini ifodalaydi. Qadimgi yunon olimi Pifagor inson hayotini shakllanish davri (0–20 yosh), yoshlik davri (20–40 yosh), yetuklik davri (40–60 yosh) va qarilik davri (60–80 yosh) kabi bosqichlarga ajratgan. Kasbiy rivojlanish bo'yicha D. Syuper esa o'sish davri (0–14 yosh), izlanish davri (15–24 yosh), kasbiy mustahkamlanish davri (25–44 yosh) va keyingi rivojlanish bosqichlarini ajratib ko'rsatgan. Kasb tanlash jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, shuningdek, psixologik va jismoniy

salomatligi albatta inobatga olinishi lozim. Bu esa yoshlarning kelajakda o'z kasbidan mamnun bo'lishi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish va kelajakda muvaffaqiyatli kasb egasi bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda psixolog, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G. Kasb psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
5. Klimov Ye.A. Kasb tanlash psixologiyasi. — Moskva, 2016.
6. Ziyo.net